




YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 153 (1214), 2024-yil 1-avgust, payshanba



Buyuk o'zbek yo'li

Shiddat bilan o'zgarayotgan davr mamlakatlar va kishilar oldiga yangi masalalarni qo'yimoqda. Har bir yangi kun o'zi bilan turli-tuman voqea-hodisalarni olib kelayotir. Bu esa mamlakatlarning ertangi kuni, ulg'ayib kelayotgan yoshlari kelajagi bilan bog'liq murakkab savollarni keltirib chiqarmoqda.

JO'SHQIN INTILISHDAN ULUG' MAQSADLAR SARI

O'zbek xalqi dunyodagi eng navqiron, "yosh" xalqlardan. Yoshlarimiz vatanimizning asosiy kuch-qudrati, xazinasidir. Shu tufayli mamlakatimizda ularga katta e'tibor qaratilib, imkoniyatlar eshigi keng ochib berilmoqda.

Bir necha yil davomida yurtimizda misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Fan va ta'lim sohasiga biotexnologiyalar, aerokosmik ishlab chiqarish, genetik arxitektura va hujayra dizayni kabi turli-tuman yangi yo'nalishlar kirib keldi. Birgina misol: yaqindagina dasturlash va axborot texnologiyalari sohasidagi yoshlarimiz barmoq bilan sanarli edi. Endi mamlakatda "Bir million dasturchi" loyihasi keng quloch yoyib, xalqaro korporatsiyalarda faoliyat yuritayotgan, ilmiy-tadqiqot institutlarida izlanayotgan yoki frilanserlik, ya'ni erkin faoliyat bilan mashg'ul minglab yigit-qiz yetishib chiqdi. Bugun sun'iy idrok tizimini



yaratishda o'zbekistonlik yoshlar ham munosib ishtirok etmoqda. 15-16 yashar bolalar Innovatsion rivojlanish agentligi qoshidagi Yoshlar akademiyasida robototexnika, dasturlash, fazoviy uskunalar parvozini boshqarish, kosmik aloqa sifatini



oshirish haqida suhbatlashganiga guvohman. O'zimizcha ularning suhbatiga qo'shilganman: — Buncha olis masofada qisqa to'liqning qaysi dolg'asida aloqa qilinadi? — Qisqa to'liqlar bu ishga yaramaydi. Aloqa uzun to'liqda olib boriladi, chunki u

yo'lida uchragan to'siqlarni aylanib o'tadi. — Ofar! Hayotimizga keng miqyosda kirib kelgan raqamlashtirish jarayoni ham katta o'zgarishlar isboti bo'la oladi. Qarang, kishilar bu haqda nimalar demoqda?


Davomi 3-betda

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi

TENG VA IJOBIY MUNOSABAT

ALOHIDA E'TIBORGA MUHTOJ INSONLARGA YARATILAYOTGAN QULAYLIK KO'LAMI KENGA YAYILMOQDA XIZMAT QILADI

Inson borki, orzu-umid bilan yashaydi. O'ziga berilgan umrni mazmunli o'tkazishga harakat qiladi. Hayot imkoniyatlaridan to'laonli foydalanishga intiladi. Garchi ba'zi imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da. Prezidentimizning shu yil 16-iyuldagi "Nogironlikni belgilash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari ana shunday imkoniyati cheklangan shaxslarning xavfsiz va to'siqlarsiz harakatlanishi uchun qulay muhit yaratish va mazkur sohaga yangicha yondashuvlarni joriy etish maqsadiga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.



Mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha izchil islohotlar kechayotir. Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimi bilan 250 ta xizmat qamrab olingan. Ijtimoiy xizmat va yordam manzilligini hamda natijadorligini ta'minlash, mahalla darajasida tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratilayapti.

Umuman, kuchli ijtimoiy himoya davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. Bu borada qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindiki, ular mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish, muassasa va tashkilotlar vazifalarini aniqlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bugun odamlarni ish bilan ta'minlash, biror faoliyat turiga jalb etishning eng samarali yo'li ularni kasb-hunarga o'qitish ekani to'plangan tajribalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Davomi 5-betda

Irrigatsiya

CHO'LDA ham YUQORI HOSIL yetishtirish mumkin

Orlobo'yi shimolidagi eng olis va suv yetib borishi qiyin bo'lgan hududlardan biri — Taxtakopir. Shu bois, bugun ushbu tumanda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish, tejamon uskunalar o'rnatish va qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda samarali foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

4 betda

Navoiy shahrining Matonat mahallasidagi Jumagul Soibova xonadonida tikuv mashinasining ovozi tinmaydi. Tikuvchilikning mohir ustasiga oxirgi paytlarda buyurtma ko'paydi. Ammo bittagina tikuv mashinasi bilan barchasini tezda bajarishi qiyin. Ayrim mijozlar kutib turlolmasligini bildirib, buyurtmasini qaytarib ham olib ketdi. Qo'shimcha tikuv mashinalari xarid qilishga, faoliyatini kengaytirishga esa imkoni yo'q.



Yangicha yondashuvlar

Jumagul opa o'yab-o'yab, oxiri mahalla raisiga tikuvchilik faoliyatini kengaytirish, oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish va chevarlik hunari bo'yicha shogirdlar tayyorlash istagini bildirib, murojaat qildi. Albatta, mahallalarda bu kabi tashabbuslar to'liq qo'llab-quvvatlanadi. Unga ham mahalla ko'magida tikuv mashinalari xaridiga bankdan imtiyozli kredit olib berilib, ko'p qavatli uylar yerto'lasidan faoliyati uchun joy ajratildi.

Ushbu qo'llab-quvvatlov o'z samarasini ko'p kuttirmadi. Ayni vaqtda Jumagul Soibova oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yib, mahalla qizlariga chevarlikdan saboq bermoqda va bir necha xotin-qizning bandligini ta'minlagan.

Davomi 2-betda

Markaziy saylov komissiyasining 31-iyul kuni bo'lib o'tgan majlisida siyosiy partiyalarning vakolatli vakilini ro'yxatga olishga doir masala ko'rib chiqildi. Saylov kodeksiga asosan, deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiya saylov komissiyasi majlislarida, hujjatlarni topshirishda, imzo varaqalari to'g'ri to'ldirilganini tekshirishda, saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish uchun o'zining vakolatli vakilini tayinlashga haqli.

SAYLOV 2024

27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

SIYOSIY PARTIYALARNING VAKOLATLI VAKILLARI RO'YXATGA OLINDI

Vakolatli vakilni ro'yxatga olish Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan Siyosiy partiyaning vakolatli vakili to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Unga ko'ra, siyosiy partiya yuqori organining rahbari saylov kampaniyasi boshlangani rasman e'lon qilingan kundan boshlab besh kunlik muddatda o'z vakolatli vakilini tayinlaydi hamda uni ro'yxatdan o'tkazish

uchun Markaziy saylov komissiyasiga tegishli hujjatlarni taqdim etadi.

Shu bois, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar rahbarlari vakolatli vakillarini tayinlab, ularni ro'yxatdan o'tkazish uchun ilk bor "E-saylov" axborot tizimi orqali Markaziy saylov komissiyasiga murojaat qildi.

Davomi 2-betda

Davlatimiz rahbarining joriy yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori xalqimiz qalbidagi aks-sado berib, istiqloqlarning ilk davridagi og'ir va sinovli kunlarni yodga soldi.

Ayniqsa, mustaqilligimizning o'ttiz uch yillik bayrami "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan ulug'vor g'oya ostida bo'lib o'tishi qalbidagi iftixor tuyg'usini jo'sh urdirdi.

QADDINGNI BALAND TUT, XALQIM!



Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritishdan avvalgi va keyingi zalvarli yillar, bugungi kunlarning guvohi bo'lib turgan avlod vakili sifatida baralla ayta olamanki, bu kunlarga yetib kelish oson kechmadi.

O'tish davridagi dastlabki qiyinchiliklar, yurtimizning atak-chechak qilgan boladek odimlashidan to'bugungacha bo'lgan davr, aslida, butun boshli o'chmas tarixdir. O'tgan o'ttiz uch yillik yo'lni, mana shu davr bilan bog'liq voqealarni ko'z oldiga keltirgan kishi borki, mustaqillik o'z-

o'zidan ro'y bergan hodisa emasligini chuqur anglaydi. Qalbi uyg'oq, idroki butun insonda "Mustaqillik menga nima berdi?" degan savol tug'ilishi noo'rin. Zotan, ahamiyati asrlarga teng mislsiz yangilanishlar, bunyodkorlik namunalari, yuksalish jarayonlari shundoqqina ko'z o'ngimizda sodir bo'ldi.

Davomi 2-betda

SAYLOV
2024
27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIMISIYOSIY PARTIYA
SAYLOV KAMPANIYASI
BOSHLANGANI E'LON
QILINGAN KUNDAN
KAMIDA TO'RT OY OLDIN
ADLIYA VAZIRLIGI
TOMONIDAN RO'YXATGA
OLINGAN VA O'ZINING
SAYLOVDA ISHTIROK
ETISHINI QO'LLAB-
QUVVATLOVCHI
KAMIDA QIRQ MING
SAYLOVCHINING
IMZOSINI TO'PLAGAN
HOLDA DEPUTATLIKKA
NOMZODLAR KO'RSATA
OLADI.SIYOSIY
PARTIYALARNING
VAKOLATLI VAKILLARI
RO'YXATGA OLINDI

Boshlanishi 1-betda

Majlisda Tadbirkorlar va ishbilamonlar harakati — O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi hamda O'zbekiston Ekologik partiyasi rahbarlari tavsiya etgan vakolatli vakillarga tegishli hujjatlar ko'rib chiqilib, ularni ro'yxatga olish hamda belgilangan shakldagi mandatni berish haqida qaror qabul qilindi.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olish jarayonlari "E-saylov" axborot tizimi orqali amalga oshirildi hamda vakolatli vakillarga mandatlar elektron shaklda tizim orqali berildi.

Shundan so'ng vakolatli vakillarga siyosiy

partiyalarning saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi saylovchilar imzosini to'plash uchun belgilangan namunadagi imzo varaqalari topshirildi.

Siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlangani e'lon qilingan kundan kamida to'rt oy oldin Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan va o'zining saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi kamida qirq ming saylovchining imzosini to'plagan holda deputatlikka nomzodlar ko'rsata oladi. Bitta ma'muriy-hududiy tuzilmada (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) siyosiy partiya qirq ming saylovchining ko'pi bilan sakkiz foiz imzosini to'plashi mumkin.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!

QADDINGNI BALAND TUT, XALQIM!



Sayyora FAYZIYEVA,
O'zbekiston kasaba
uyushmalari federatsiyasi
Toshkent viloyati kengashi raisi

Boshlanishi 1-betda

Sira yodimdan chiqara olmayman. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinganida oddiy shifokor bo'lib ishlardim. U vaqtlarda aholi salomatligi emas, paxta davlat siyosatining asosiy yo'nalishi hisoblanardi. Poliklinika, qishloq vrachlik punktlarida bir nafardan shifokor va hamshira qoldirilib, qolgan hamma paxta terimiga jalb qilinardi. Turgan gapki, sog'liqni saqlash muassasalaridagi sharoit, tibbiy uskunalar, asbob-anjomlarga e'tibor ham shu darajada edi.

O'tgan asrning 90-yillari... Rastalar bo'shab, jon boshiga un va un mahsulotlari,



yog', shakar, sovun kabi birlamchi mahsulotlar talon orqali berilardi. Albatta, har qanday o'tish davrida muayyan qiyinchilik,

Oxirgi yillarda esa, birinchi navbatda, inson qadri hamma narsadan ustun qo'yilganini e'tirof etmoqchiman. Islohot, avvalo, inson uchun xizmat qilishini xalqimiz his etib yashay boshladi. Bu omil bugungi siyosatda yaqqol o'z ifodasini topmoqda. Xususan, har bir muassasa va tashkilotda insonlar uchun qulay sharoit yaratilgan, xalq bilan ochiq muloqot qilinib, odamlar murojaati tinglanmoqda, muammolar hal etilmoqda.

sinovlar bo'lishi tabiiy. Matonat va murosaba bilan ish ko'rgan jamiyatgina bularni yengib o'tadi. Xalqimiz ko'p og'ir kunlarni boshdan kechirgan, irodasi mustahkam, sabrli. Shuning uchun ham yurtga tirgak bo'la oldi, barcha birlashib, qiyin kunlarni matonat bilan mardonavor yengdi.

Oxirgi yillarda esa, birinchi navbatda, inson qadri hamma narsadan ustun qo'yilganini e'tirof etmoqchiman. Islohot, avvalo, inson uchun xizmat qilishini xalqimiz his etib yashay boshladi. Bu omil bugungi siyosatda yaqqol o'z ifodasini topmoqda. Xususan, har bir muassasa va tashkilotda insonlar uchun qulay sharoit yaratilgan, xalq bilan ochiq muloqot qilinib, odamlar murojaati tinglanmoqda, muammolar hal etilmoqda.

Mazkur qarorda inson qadri, huquq va manfaatlari eng yuqori o'rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo'lidagi ishlarga katta e'tibor qaratilgan, do'stlik va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, tinchliksevar tashqi siyosat, O'zbekistonning dunyo miqyosida o'ziga xos hurmat-e'tibori ortayotgani haqidagi qaydlar barchamizni o'lga yurish, shijoat bilan ishlashga undaydi.

O'tmishda yurt ozodligi, jamiyatning ma'rifatliligi bo'lishi, o'zligini anglashi yo'lida ota-bobolarimiz ko'p kurashgan, qon to'kkan. Ammo noto'g'ri siyosat tufayli necha yillar davomida ular nomi qoralab ko'rsatildi. Bu yo'lida jon fido qilganlarning tabarruk nomi tarixga "bosmachiligi" deya muhurlandi.

E'tiborlisi, qarorda milliy istiqlolga erishish yo'lida jon fido qilgan, siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan ota-bobolarimiz xotirasini yod etish bo'yicha alohida band mavjud. Bu davlatimiz qahramon insonlarni hech qachon unutmasligi va yosh avlodga ular jasoratini to'g'ri anglatish yo'lidan borishini bildiradi. Uzoq yillar davomida nomi qoralangan ko'pgina vatanparvarlar sha'ning oqlab kelinayotgani faxr bilan aytishga arziydigan, olamshumul voqealardir.

Bayram munosabati bilan keksa avlod vakillarini e'zozlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj, shuningdek, "Temir daftar", "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar"da ro'yxatda turuvchi yurtdoshlarimiz holidan xabar olish, ularga har tomonlama ko'mak berish kabi vazifalar xalqimizning ko'nglidagi ishlardir.

Yurtimizga bayram va tinchlik, odamlarimizga tabassum va shodlik yarashadi. Shu ma'noda, yangi O'zbekiston davlatini barpo etishdek ulug'vor ishga bel bog'lagan ko'pmillatli xalqimiz uchun eng ulug', eng aziz bayram — mustaqillik ayyomini yagona xalq bo'lib, birlashib, hamjihatlikda, katta tantana, zo'r shodlik, shukronalik ila nishonlaymiz!

Binobarin, mustaqillik xalqimizga qaddini baland tutish, o'z yering haqiqiy egasi bo'lish, chinakam xalq-qimmat tuyg'usini, azaliy e'tiqodini, milliy til va ma'naviyatini, boy berilgan barcha-barchasini qaytarish, qayta tiklash imkonini tuhfa qiladi.

Yangicha yondashuvlar

NAVOIY ISHSIZLIKDAN
XOLI HUDUDGA AYLANADI

Boshlanishi 1-betda

— Qariyb o'ttiz yildan buyon tikuvchilik qilaman. Avvaldan shu bitta tikuv mashinasida buyurtma bajarib keldim, — deydi Jumagul opa. — Faoliyatimni kengaytirish istagi tug'ilganda, to'g'risi, boshida mahallaga murojaat qilishga ikkilandim va maqsadim amalga oshishiga ham ishonchsizlik bor edi. Mahalla raisiga taklifimni aytganimda juda ijobiy qabul qildi va menga barcha ko'maklar berildi. Ochig'i, ishlarim burchalik tez hal bo'lishini kutmagandim. Hozir imtiyozli kredit asosida bir necha tikuv mashinasi xarid qilganman va chevarlikni o'rganish istagida bo'lgan mahalla qizlarini shogirdlikka olganman. Buyurtmalar ko'p va shunga yarasha daromad ham yaxshi.

Albatta, aholining tadbirkorlik tashabbuslariga moliyaviy ko'maklashish, daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag'allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish bugun xalqimiz turmushida sezilarli samara bermoqda.

Navoiy shahridagi 36 ta mahallada ham hududdagi ijtimoiy vaziyat xonadonbay so'rovlar o'tkazish orqali o'rganilib, aholining bandlik darajasi, oilalarning daromad manbalari, tomorqa yerlaridan foydalanish holati hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlari doimiy tahlil qilib borilmoqda. Birgina joriy yilning o'tgan davrida Matonat mahallasidagi o'rganishlar jarayonida ehtiyojmand va yordamga muhtoj 30 ga yaqin fuqaroga subsidiya ajratilishi hamda xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun bankdan imtiyozli kredit olishiga zarur ko'maklar ko'rsatildi. Umuman olganda, bugun ishlash istagi bor, o'z biznesini yo'lga qo'yimoqchi bo'lgan, ish o'rnlari yaratish tashabbusi bilan chiqqan hech bir kishi "mahalla yettiligi" e'tiboridan chetda emas. Bu esa Jumagul Soibova kabi xotin-qizlar uchun ayni muddado bo'lmoqda.



Mahallada yashovchi Yoriqinoy Naimova ham ikki farzandning yolg'iz boquvchisi va ishsizlik tufayli ro'zg'or tebratishga qiyinlangan vaqtda mahalla mutasaddilari yordamga keldi. Navoiy shahri obodonlashtirish bo'limiga ishga kirib, birinchi oylik maoshini olishga ham ulgurdi. Hozir Yoriqinoy Naimova ahil jamoada ishlayotgani, halol rizq topayotganidan juda mamnun.

Xalq bilan muloqot qalb bilan muloqotga aylandi. Bugun har bir xonadonga kirib borib, muammolarini o'rganib, yechim topish choralarini ko'rilar ekan, bu o'sha xonadonga quvonch va baraka olib kirmoqda. Ushbu mahalladagi Dildora Tilabova mohir chevar. Kelinlar uchun to'y liboslari tikadi. Ammo istagi faoliyatini kengaytirib, go'zallik saloni ochish va ish o'rnlari yaratish bo'lgani sababli mahallaga murojaat qildi. Natijada mahalladagi mo'jaz binoda 5 xotin-qizning bandligini ta'minlagan go'zallik saloni faoliyat boshladi.

— Mahallamizda 5650 kishi istiqomat qiladi. Yil boshida "mahalla yettiligi" tomonidan

xonadonbay o'rganishlar o'tkazilib, 120 ishsiz fuqaro "Ombor" daftariga kiritildi, — deydi Navoiy shahridagi Matonat mahallasi raisi Shahlo Bozorova. — Ularning 38 nafariga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun 33 million so'mdan 100 million so'mgacha imtiyozli kredit olishga ko'maklashildi. Ushbu mablag'lar maqsadli sarflanishi natijasida tashabbuskorlarning faoliyati kengayib, mahallada yangi ish o'rnlari yaratildi. Shuningdek, 100 nafar fuqaro turli sohalarida doimiy ish bilan ta'minlandi. Qolaversa, 10 nafar xotin-qizga subsidiya va homiylik asosida tikuv mashinalari olib berildi. Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha bu kabi ishlar mahallamizda tizimli ravishda davom etmoqda.

Navoiy viloyatining eng olib hududlaridan biri bo'lgan kenja shahar — G'ozg'onda ham bugungi kunda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlik loyihalari uchun imtiyozli kredit ajratish orqali aholi uchun yangi ish o'rnlari yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, shaharning

Tumor mahallasida yashovchi Mohichehra Norboeva milliy kashtachilik hunari orqali tadbirkorlikni yo'lga qo'yib kam bo'lmadi. Bu yerda mahallaning o'ndan ortiq xotin-qizi ishlaydi. Bugungi kunda ushbu xonadonda tayyorlanayotgan milliy kashtachilik namunalari sifati yuqori va bejirimligi bois, xorijiy davlatlarga ham eksport qilinmoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy qadriyatlarini jahonga tanitish barobarida oilalar daromadi oshishiga ham imkon bermoqda.

— Milliy kashtachilik bu hududda momomeros hunarlardan hisoblanadi va xotin-qizlarning asosiy daromad manbai bo'lgan yo'nalishlardan biridir, — deydi hunarmand Mohichehra Norboeva. — Ayni vaqtda 20 nafar xotin-qizning bandligini kasanachilik asosida

ta'minlaganmiz. Ular o'z uyida buyurtmalarni bajarib, olib kelib beradi. Bu ularning oilasidan ajralmagan holda daromad topishiga imkon yaratadi. Xonadonimizda ham 10 dan ziyod xotin-qiz kelib, kashtachilik bilan shug'ullanib, buyurtmalarni bajaradi. Bundan tashqari, ko'pgina yosh qizlarimizga ham ushbu hunar sirlarini o'rgatib kelmoqdamiz.

G'ozg'on shahrida 10 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi va ularning qariyb yarmini xotin-qizlar tashkil etadi. Ularning aksariyati aynan kashtachilik hunari orqali daromad topadi. "Ayollar daftar"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj 165 xotin-qizga ham har tomonlama ko'mak ko'rsatilmoqda.

G'ozg'on shahriining geografik joylashuvi va tuproq holatidan kelib chiqib, dehqonchilik

AYNI VAQTDA NAVOIYNI ISHSIZLIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANTIRISHGA QATTIQ KIRISHILGAN. VILOYATDAGI 330 TA MAHALLANING HAR BIRIGA ISHSIZ FUQAROLARNING BANDLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA MAS'ULLAR BIRIKTIRILGAN.



qilish birmuncha murakkab. Biroq o'tgan yillar mobaynida hudud aholisi bu borada ham yaxshigina tajriba o'zlashtirdi. Birgina Guliston mahallasi misolida oladigan bo'lsak, joriy yilda 20 dan ortiq xonadonda issiqxona tashkil etilib, ayni mavsumda turli sabzavot ekinlari yetishtirildi. Ayniqsa, hududda "Sayxunobod tajribasi" joriy etilishi natijasida bu kabi issiqxonalar, asalarichilik, chorvachilik va baliqchilik bilan shug'ullanadigan xonadonlar soni ko'paydi. Bu esa G'ozg'onni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish yo'lidagi chora-tadbirlarning amaldagi samarasi bo'lmoqda.

Bugungi kunda Navoiy viloyatida ishsizlik darajasi 6,3 foizni tashkil etadi. Joriy yilda barcha yo'nalishlarda 136,7 ming aholini daromad keltiradigan mehnat bilan band qilish dasturi tasdiqlangan va shunga asosan, hozirgacha 31,1 ming kishi ish bilan ta'minlandi.

Joriy yilda hududlardagi ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda tashkil etilgan 93 ta mehnat yarmarkasi davomida 1342 fuqaro doimiy ish o'rnlari joylashtirildi, 538 nafar haq to'lanadigan jamoat ishlariga hamda 606 nafar kasb-hunarga o'qitishga yo'naltirildi, — deydi Navoiy viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i Lutfullo Fayrullayev. — Shuningdek, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiyinlayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan 629 fuqaro xaziralangan ish o'rnlari joylashtirildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning o'tgan davrida Navoiy viloyatida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufidagi monomarkazlar va boshqa o'quv maskanlari, nodavlat o'quv markazlarida jami 3934 nafar ishsiz fuqaro mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 71 turdagi kasb-hunarga, tadbirkorlikka va xorijiy tillarga o'qitishga jalb etildi. Ularning 1214 nafari o'qishni tugatgan bo'lib, 1000 nafarining bandligi ta'minlangan. Bundan tashqari, mahallalarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash maqsadida qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va kichik ishlab chiqarish sohasida jami 755 ta mahallabay loyiha shakllantirilib, shundan 43,5 milliard so'mlik 248 loyiha faoliyat boshlashi natijasida 685 ta ish o'rni yaratilgan.

Muxtasar aytganda, ayni vaqtda Navoiyini ishsizlikdan xoli hududga aylantirishga qattiq kirishilgan. Viloyatdagi 330 ta mahallaning har biriga ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash bo'yicha mas'ullar biriktirilgan. Bu esa aholining daromadli ish bilan doimiy band bo'lishi, natijada farovon turmush kechirishi, davlatdan rizq, hayotidan mamnun yashashida muhim omil bo'lishi shubhasiz.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Buyuk o'zbek yo'li

JO'SHQIN INTILISHDAN
ULUG' MAQSADLAR SARIIsajon SULTON,
O'zbekiston xalq yozuvchisiTENGLIK, ADOLAT,
HAQ VA HUUQUQNING, HALOL
MEHNATNING, FIDOYILIK VA
VATANPARVARLIKNING DOIMIY
HIMOYACHISI BO'LIB MAYDONGA
CHIQQAN YOSHLAR TARAQQIYOTIMIZ
KALITI BO'LMISH TUB ISLOHOTLARNING
ASOSIY KUCHI SIFATIDA
QUDRATI ASRLAR BO'YI
JO'SH URADIGAN ULUG'
XALQ KELAJAGINING
ISHONCHLI
TAYANCHIDIR.

Boshlanishi 1-betda

"Shu kunlarda yurtimizdagi oliy ta'lim dargohlariga 900 mingga yaqin o'g'il-qiz hujjat topshirdi.

Avvallari bu ishga kunlab vaqt va mablag' ketar edi. Endi abituriyentlar uyidan chiqmay, smartfon yoki kompyuter yordamida hujjat topshirmoqda. Keng miqyosda qaraydigan bo'lsak, bunday texnologiya tufayli har bir abituriyentning hech bo'lmasa, uch soat vaqti tejalganida ham bu raqam 2 million 700 ming soatga, 112 yarim ming kunga yoki 308 yilga, ya'ni 3 asrga teng bo'ladi. Bu — birgina abituriyentlar misolidagi gap. Agar davlat xizmatlari, xususi sohada raqamlashtirish tufayli tejalgan vaqt va mablag'ni hisoblasak, odamning aqli shoshadi".

Bundan tashqari, yana minglab yoshlarimiz fandan sanoatgacha, ishlab chiqarishdan qishloq xo'jaligigacha, aerokosmik bilimlardan zamonaviy tibbiyotgacha bo'lgan turli sohalarida ilg'or bilimlarni egallamoqda. Yaqin-yaqinda ham ishlab chiqarishga joriy qilingan yangi jihozlarni sozlash uchun chetdan mutaxassis olib kelinardi. Bugun bu ishini yoshlarimiz bemaol uddalayapti.

Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun "Mirzo Ulug'bek" va "El-yurt umidi" jamg'armalari yuzlab yoshlarni juda katta mablag' evaziga xorijning ilg'or universitetlariga o'qishga yubormoqda. Oliy ta'lim muassasalari dunyoning yetakchi universitetlari bilan amaliy aloqalarni, talaba almashinuvi va mutaxassis ta'limni yo'lga qo'ygan. Jarayon davom etmoqda, iste'dod degan bo'liq tuproqqa bilim urug'lari qadaloqda. Mamlakat bo'ylab davom etayotgan bu ulug' jarayonni katta po'rtananing birilamchi to'liqini, desak bo'ladi. Shu bilan birga, hech qancha vaqt o'tmay, egallangan bilimlar o'rtida darajaga aylanadi va yanada ilg'or bilimlarga ehtiyoj yuzaga keladi. Chunki yangilanish va rivojlanish jarayoni buni yaqqol namoyon qilib turibdi. Shu tufayli umumiy safarbarlikdan tashqari, har bir kishining jonbozligi va fidoyiligi, javharida yashirgan iste'dodni ro'yobga chiqarish kun tartibidagi masala.

BIR KISHI —
HAMMA UCHUN

Akademiklarimizdan biri bunday deydi: "Agar qadimgi davrlarda bugungidek patent tizimi bo'lganida edi, birgina Muhammad Xorazmiy "nol" raqamini iste'molga kiritgan uchun butun olam asrlar davomida yurtimizga boj to'lardi. Bunga Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, G'iyosiddin Koshiy, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamaxshariy, Imom Buxoriy va boshqa mutafakkirlarning olamshumul kashfiyotlarini ham qo'shing: butun olam xirojiga teng bo'lmaydimi?"

— Ie, unda maza qilib ishlaymiz yotaversak ham bo'lar ekan-da? — deydi dunyodan bexabar kimdir.

"Ishlamay yotaverish"ning iloji yo'q: olam yangilanmoqda. Akademikning yuqoridagi so'zlari yangilikning naqadar muhim ekanini, davrlar o'tishi bilan qiymat ortib borishini ko'rsatadigan yorqin dalil. Vaholanki, nomlari tilga olingan daholar yashagan davrda zamona juda murakkab bo'lgan.

Unda ilm-fan qanday rivoj topgan ekan? Agar Muhammad Xorazmiy Bayt ul-hikma mutasaddillarining e'tiboriga tushmaganida, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xammor, Masihiy kabi olimlarni Ma'mun xonadoni qo'llab-quvvatlamaganida u kashfiyotlar yuzaga chiqarmidi?

Hozir davr avvalgilarga nisbatan minglab karra murakkab. Ayni shunday pallada ilgama homiylik qilishdek hayotbaxsh mas'uliyatni

davlatimiz o'z zimmasiga oldi. Shu ma'noda, butun O'zbekiston ulkan akademiyaga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Birinchi va Ikkinchi Renessans zamonasida davlat bir necha olimni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, bugun mamlakat rahbari barchaga xitob qilmoqda: "Sizlar eng to'g'ri yo'lni — bilim yo'lini tanlagansizlar. Hech qachon o'qishdan, izlanishdan to'xtamanglar. Vaqt tez o'tadi, ertaga hayotda munosib o'rin topishingiz, zamonga mos mutaxassislar bo'lib yetishishingiz uchun bugun o'qishingiz kerak. Men ishonaman, sizlar mutlaqo yangi avlod yoshlari bo'lib ulg'ayasizlar, ota-onangiz, el-yurtiniz orzusini



ro'yobga chiqarasizlar. Chunki sizlarda bilim bo'ladi. Bilim esa, ko'p bor aytganimdek, o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi. Yakkayu yagona najotimiz — ilm!".

Demak, gap bilimning ahamiyatini anglab yetish va unga intilish haqida bormoqda. Bilishga kuchli ishtiyok tufayli ne-ne mutafakkirlar hayot qiyinchiliklariga qaramay, yuksak cho'qqilar sari sabot va matonat bilan olg'a intilgan. Qalbi bilish va izlanishdan orom oladigan, bu ishini hayotining mazmuni deb biladigan olimlarimiz bugun ham ancha.

— To'g'ri, bilim yaxshi, ammo orzu-havas ham bor-da. Qancha qiyinchiliklardan o'tib, qachon maqsadiga erishadi-yu, qachon ko'chat hosil beradi? — deydi yana kimdir.

Orzu-havas o'z yo'lga, ammo sulton Mas'ud G'aznaviy Abu Rayhon Beruniyga bir fil ko'tara oladigan og'irlikda kumush in'om qilganida olim uni xazinaga qaytarishni iltimos qiladi. Oling zamondoshi bo'lmish boshqa bir olimning ta'kidlashicha, Beruniy "bir yilda ikki marta — Navro'z va Mehrjon bayramlarida hujrasidan chiqar edi, xolos. Kerakli ozuqa va libosni g'amlab olgach, yana o'zining sevgan mashg'uloti bilan shug'ullanardi". Abu Ali ibn Sino Buxoro va Xorazmdan ketganidan so'ng

ham mashaqqat va qiyinchiliklar girdobida kitob yozishda davom etadi. Sulton Ulug'bek taxt uchun kurashlar, ixtiloflar fikru zikrini band qilishga qaramay, fazo va yulduzlar olamini tadqiq qilishdan orom topadi.

Alloma bobolarimiz turmush tashvishlarini emas, aksincha, tasavvur kengliklarida jilva qilgan noyob bir topilma sirini ochish uchun bilim yetishmasligini qiyinchilik deb bilgan.

Bugunimizning yoniq chorlovlari zamirida esa ishtiyok, matonat, bardosh bilan yuksak manzillarga erishishning shon-sharafi yo'li haqida so'z bormoqda.



Bu shunchalar yuksak marraki, undan barcha bahra oladi, hayot tarzi tubdan, baxt-saodat sari o'zgaradi. Shu bois, butun mamlakat yoshlariga bilim oling, o'rganing, deb xitob qilinmoqda. Bir mahallal bola Ibn Sinoning otasi mashhur alloma Notilini o'g'limga ta'lim bering degan iltimos bilan Samarqanddan Buxoroga olib kelgan edi. Bugun ta'lim dargohlarimizda yetuk olimlarimiz bilan bir qatorda jahonning ko'zga ko'ringan kashfiyotchilari, Nobel mukofoti laureatlari ma'ruza o'qimoqda.

Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda o'zibo'larchilik, manfaatparastlik asosiga qurilgan jamiyat tartibi tufayli ota-onalar farzandiga, ustozlar shogirdiga gapini o'tkazolmay halak. Shu sababli eng ilg'or o'lkalarda ham yoshlarni qamrab

rabbarining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida keltirib o'tilgan "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" shiori ham tasdiqlab turibdi.



Baraka

Barchamiz yurtimizni barakali deb bilamiz. Haqiqatan, shunday. Baraka manbai — ajdodlarimiz va ulug'larimizni, muqaddas qadamlarimizni izzatlashimizda, tariximizni bilishimiz va e'zozlashimizda, el-yurtning ezgu duosi va yorug' niyatlarida.

Shu bilan birga, bu so'z olam havas qilsa arizgulik go'zal, betakror yurtimiz tuproqlarigagina emas, xalqimizga ham aloqador. Yurtimizda yetishib kelayotgan yoshlarimiz ham barakaning ayni o'zidir.

Bejiz "Avlodning barakali bo'lsin, naslingga baraka yog'olsin", deyilmaydi.

"Bugungi kunda maktab, kollej, texnikum va oliygohlarda bilim olayotgan, o'z shaxsiy ishini ochib, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan, Qurolli Kuchlarimiz saflarida yig'itlik burchini sharaf bilan ado etayotgan, ishlab chiqarish, qurilish, ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalariga, zamonaviy IT-texnologiyalari yo'nalishlariga dadil kirib borayotgan, katta orzu-umidlar bilan yashayotgan 18 milliondan ziyod o'g'il-qizlarimiz — bizing bebaho boyligimiz, oltin xaziramizdir", deyilganida ayni shu baraka ham nazarda tutilgan bo'lsa va Xudo bergan bunday aziz ne'matni asrab-avayalish, kamol topirish nazarda tutilgan bo'lsa, ajab emas.

Davlatimiz rahbarining ushbu so'zlarida esa yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini birgalikda yaratishga chorlov bor: "Ishonchim komil, jonajon Vatanimizga



mehri va sadoqat bilan yashayotgan, ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallab, hozirgi murakkab zamondagi keskin raqobatga tayyor bo'lib voyaga yetayotgan yoshlarimiz har qanday baland

marrani egallashga qodir... Yangi O'zbekistonda albatto sizlar bilan, butun mamlakatimiz yoshlari bilan birga barpo etamiz!".

UCHINCHI RENESSANS

O'zbekistonda juda keng ko'lami va tub yangilanishlarga umumiy qilib "milliy yuksalish", yangilanishlarning pirovard maqsadi va natijasiga "Yangi O'zbekiston", tafakkurdagi yuksalishning hosilalariga esa "Uchinchi Renessans" deb nom berildi.

Davlatimiz rahbari aytgan Uchinchi Renessans qanday sodir bo'lar ekan? Bu borada har kim o'z dunyoqarashi, tasavvuridan kelib chiqib bahslashadi:

— Fanda juda katta sakrasiyuz beradi. Asr muammolarini hal qilib beradigan kashfiyotlar yaratiladi.

— Mo'jizalar oddiy bo'ladi, deyishadi-ku. Kim bilsin, kutilmaganda hech kimning xayoliga kelmagan energiya manbai olish yo'li topilar?

— Xalq orasidan nodir mutafakkirlar yetishib chiqadi. Ular yangi kashfiyotlarga yo'l ochadi. Ular kashfiyot egasiga ham, uning yurtiga ham misli ko'rilgan foyda keltiradi...

— Yo'q-yo'q, bu jarayonning ko'lami siz aytgandan ko'ra ancha keng. Dunyodagi o'zgarishlarni mushohada qiling. Axir olamning tafakkur va iqtisodiyot vektorlari Sharq tomon siljimoqda. Tez orada yurtimiz zamonaviy Buyuk ipak yo'li chorrahasidagi texnologiya, bilim va mahsulotlarning o'ta muhim xabiga, ya'ni o'tkazgichiga aylanadi. G'oyalari, fikrlari, kashfiyotlari, resurslari, mablag'lar daryosining markaziy porti bo'ladi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barpo etilayotgan xalqaro va transkontinental loyihalarga nazar soling! Bu jarayon tahlilchilarimiz tomonidan batafsil o'rganilib, ipidan ignasigacha tahlil qilingan, davlat va jamiyat islohotlari, qonunchilikdagi,

endi kishilarning tafakkuri va munosabatlari shu qutlug' yuksalishga tayyor bo'lishi kerakligi haqida borgan urilmoqda.

Haqiqatan, Uchinchi Renessans o'timishdagi kabi bir qancha olimlarning kashfiyotidan iborat bo'lmaydi. Yangi O'zbekistonning o'zi Uchinchi Renessans poydevoriga aylanadi. O'lkamizda yangi dunyo brendlari yaratiladi, jamiyatning zamonga mos tartibi, qonun-qoidalar ishlab chiqiladi. Iste'molchilik emas, yaratuvchilik ruhi ustuvor bo'ladi. Xalqona qilib aytganda, qarovsiz qolib ketgan, begona o't bosgan tuproq sog'lomlashtiriladi, unga toza, zilol bilim suv bo'lib quyiladi. Shubha yo'qki, buyuk yuksalish, albatta, sodir bo'ladi.

Ulug' shoirimiz Abdulla Oripov bir vaqtlar shunday kunlarni orzu qilib, "Labda tabassum-u ko'zda yosh bilan, Senga talpinaman, buyuk nabiram", deb yozgan edi. Atoqli shoir murojaat qilgan nabiralari bugun jamiyatning faol qatlami bo'lib shakllandi. Kelajak avlodlari ayni shu buyuk yuksalishlar poydevorini yaratib bergan, kechani kecha, kunduzni kunduz demay zahmat chekkan bobolarini, albatta, katta hurmat va izzat bilan yodga oladi.

Qarang, niyatlar qanchalar hayotiy va yorug'!

Xo'p, bularning barchasi negiz va zamonaviy fanlarga, ko'nikmalarga aloqador ekan, badiiy sohada nima o'zgarishlar bo'ladi?

Hech bir mamlakatda madaniyat va san'atga e'tibor yurtimizdagidek keng ko'lami, davlat himoyasida emas, buni to'la ishonch bilan ayta olamiz. San'at qatori badiiy ijodga ham e'tibor yuksak darajada. Yaqinda Zominda bo'lib o'tgan xalqaro maqom san'ati festivalini eslaylik. Har safar mehmonlarimizga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining ko'rkam, barcha havas qilgulik binosini faxr bilan ko'rsatganimizda mehmonlar hayratiga guvoh bo'lamiz. Bu ham ezgu an'analarimizning uzviy davomi desha bo'ladi. Har yili adabiyot va san'at sohasida iste'dodlarni izlab topish hamda rag'batlantirish borasida yuzlab tadbirlar o'tkazilayotgan qobiliyatli yoshlar uchun kerakli barcha sharoitlar yaratilganini isbot qilib turibdi.

Ular yaratadigan pishiq badiiy asarlar, roman va dostonlar esa xalqimiz xazinasi munosib o'rin olib, bugunimizning kishilari va yuksalish jarayonlari haqida kelajak avlodlarga hikoya qilib beradigan badiiy solnoma bo'lib xizmat qiladi, albatta.

Chunki dunyoni anglab yetish, o'zgarishlarni to'g'ri talqin qilish uchun yanada ko'proq bilimga ega, bilimlarni kerakli tarzda yo'naltirgan, qobiliyatini rivojlantirgan, texnologiyangilik va o'zgarishlarga ochiq, turli tushuncha va madaniyatlarini hurmat qiladigan yoshlarni kamolga yetkazish kerak. Zero, tenglik, adolat, haq va huquqning, halol mehnatning, fidoyilik va vatanparvarlikning doimiy himoyachisi bo'lib maydonga chiqqan yoshlar taraqqiyotimiz kaliti bo'lmish tub islohotlarning asosiy kuchi sifatida qudrati asrlar bo'yi jo'sh uradigan ulug' xalq kelajagining ishonchli tayanchidir.

2024-yil 1-avgust, 153-son

Obod mahalla



XAYRLI ISH

PAYSALGA SOLINMAS

Marg'ilon shahridagi "Bahrin" mahalla fuqarolar yig'ini boshqa hududlarga qiyoslanganda birincha qoloq edi. Ayollari ko'chaga chiqavermas, ijtimoiy hayotga aralashmasdi. Bugunga kelib, odamlarning dunyoqarashi, hayot tarzi o'zgardi. 3,5 mingdan ziyod kishi yashayotgan mahalladagi ishga yaroqli xotin-qizlarning to'rt nafariga ishsiz. Joriy yilning shu kunigacha hududda birorta jinoyat va ajralish qayd etilmadi. Bu aholi turmush darajasini ko'tarish, odamlarning hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun zarur shart-sharoit yaratish yo'lidagi amaliy sa'y-harakatlar samarasidir.

Mahalla "Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla" mezonlari asosida rivojlantiriladigan hududlar qatoriga kiritilib, keng ko'lamli bunyodkorlik, obodonlashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ehtiyojmandlarni qo'llab-quvvatlash, aholining yurt taraqqiyotiga daxldorlik hissini oshirish yo'lida istiqbolli loyihalar bajarildi.

Mahallamiz Marg'ilonning shimoliy darvozasi, shaharning eng gavjum joyi, — deydi MFY raisi Nodirbek Sakkiyboyev. — Ammo hududimizdagi obodlik, ko'chalarniz, xonadonlarimiz bir qismining qiyofasi bugungi rivojlanish darajasiga mo'ljallangan. Hatto odamlar yordam so'rab keladigan mahalla fuqarolar yig'ini binosi ham nochor ahvoldaligidan xijolat tortardik. Endi hammasi boshqacha. Davlat-xususiy sherikligi asosida yangi bino qurilib, kerakli shart-sharoit yaratilgan barchamizni xursand qildi.

Har bir xonadon, ko'chalarni obodonlashtirish, mahalla ahlini rozi qilish maqsadi ko'zlangan dastur ijrosi uchun 3 milliard 795 million so'm ajratildi. Bundan tashqari, korxonalar va tashkilotlar, homiylik ko'magida savobli va xayrli ishlar qilindi. Mahalla mutasaddilari, faollari, eng avvalo, hududdagi 520 ta xonadonni xatovdan o'tkazib, qaysi biri nimaga qodir qay biri yordamga muhtojligi bo'yicha toifaga ajratib oldi. So'ng ular shahardagi 35 ta korxonalar va tashkilotga birlashtirildi. Homiylik yordamida 363,1 million so'm hisobiga 177 xonadonning ichki va tashqi fasadi ta'mirlanib, xonadonlar va ko'chalarga zamonaviy qiyofa baxsh etildi. Mustaqillik ko'chasidagi yordamga muhtoj ikki oila yashaydigan uylar to'liq ta'mirlandi. Ehtiyojmand oilalarga tegishli xonadonlarga oshxonalar, tandirxonalar, hammom qurib berildi. Bu ishlar uchun davlat byudjetidan 750 million so'm sarflandi.

— Baxtsiz hodisa tufayli uyimizda yong'in chiqib, oilamiz qiyin ahvolda qolgandi, — deydi Mustaqillik ko'chasida yashovchi Roziyaxon Matkarimova. — Mahallamizni obod qilish jarayonida ajratilgan mablag' evaziga uylarimiz qayta tiklab berildi. Katta yo'l bo'yidagi xonadonimizning bir qismida xizmat ko'rsatish shoxobchasi ochib berilgan oilamiz byudjetiga baraka kirishiga xizmat qilyapti.

— Hududlar rivojlanishi, asosan, tadbirkorlik harakatiga bog'liq, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Oybek Rahmonov. — Ayni kunda 95 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatyapti. Husanboy Ahmadjonov rahbarligidagi "Yevroosiyo mebel" MCHJ 56 xil ko'rinishdagi

zamonaviy mebellar ishlab chiqaradi. Korxonaning kichik bo'limida 20 nafar mahalladoshimiz ish bilan band qilingan. Tadbirkorning faoliyatini kengaytirish uchun shahrimizdagi kichik sanoat zonasidan 50 sotix maydon ajratilishida amaliy ko'mak berdik.

Dastur ijrosi doirasida mahalladagi 13 tadbirkorga 166 million so'm, yana 5 tadbirkorning har biriga biznesini rivojlantirish uchun 100 million so'mdan imtiyozli kreditlar ajratildi.

El dasturxonini turfa shirinliklar bilan bezayotgan Zulkumor Abdug'afrovanning oilaviy korxonasida bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdik.

— Shu kunga qadar tor, ishlab chiqarish vositalari ma'nan eskirgan sharoitda

Obodlik mezonni talablarini bajarishda mahalla ahlini "ayol faqat bola boqish, uy yumushlari uchun yaralgan" degan tushunchadan xalos etishga ham e'tibor qaratildi. Xotin-qizlar faoli Zulfuyaxon Rustamova boshliq oqila va targ'ibochi ayollar o'tkazgan subbatlar samara berdi. Bugunga kelib, mahalladagi aksariyat ayol-qiz hunarmandlik yo'nalishida kasanachilik bilan shug'ullanyapti. Jumladan, 83 nafari xonadonida o'zini o'zi band qilib, daromad topyapti, 26 nafari subsidiya asosida tikuv mashinasi bilan ta'minlandi. Nigoraxon Mullajonova, Durdonaxon Usmonova, Malikaxon Shokirova singari zamonaviy tikuv mashinasi bilan ta'minlangan ayollar chevarlik qilib, xonadoniga baraka kiritayotganidan mamnun.



mehnat qilganmiz, — deydi tadbirkor ayol. — Oilaviy biznesimni rivojlantirish, keng xonani moslashtirib, ko'chib o'tish, 25 kiloli mikser, ikkita katta pech va boshqa zarur jihozlar sotib olishim uchun menga dastur doirasida imtiyozli kredit berildi. Hozir mahallamizning 12 qizi bilan hamjihatlikda 20 turdagi shirinlik tayyorlaymiz. Bu hunarni o'rganish istagidagi xotin-qizlar ko'p. Shu bois, hunar o'rgangani qo'shni tuman va mahallalardan ham qizlar kelyapti. Mahsulotlarimiz xaridorgir. Ishchilarimiz faoliyatidan, topayotgan daromadidan mamnun.

— Bu yerda hunar o'rganish bilan birga xonadonimizga nafimiz tegyapti. Oilaviy hayotga ham tayyorlanaymiz. Uy-ro'zg'or tutumi, isroflarning oldini olish, oilaviy xo'jalik ishini me'yorida yuritish, muomala madaniyatini o'rganyapmiz, — deydi Lilolaxon Murodillaeva.

Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi turmush darajasini ko'tarishda infratuzilmaning ahamiyati katta. Bu yerda dastur doirasida bitta quduq kovlandi, 1100 metr masofaga ichimlik suv quvuri yotqizish ishlari davom etmoqda. Bitta yangi transformator o'rnatilib, ikkita ta'mirlandi. Elektr ta'minotidagi muammolarni bartaraf etish uchun 143 ta yangi tayanchga 3500 metr kabel, 7,2 kilometr hajmda optik tolali aloqa tarmog'i tortildi.

O'quvchilar jismoniy chiniqishi uchun 27-maktab stadioni atrofiga 300 metr yugurish yo'lakchasi, vorkaut, tir barpo qilingani ham ayni muddao bo'ldi. Mahalla obodligida ko'zga yaqqol tashlanadigan omillardan biri yo'llar ravonligidir. Dastur asosida Mustaqillik ko'chasining mahalla hududidan o'tgan qismi rekonstruksiya qilindi, Forobiy va Diyov ko'chalari 800 metr ichki yo'l ta'mirlandi. Jarayonda "Xo'ja porso" qabristonining 454 metr hajmdagi devori tashabbusli byudjet hamda homiylik yordamida pishiq g'isht bilan o'rnatib, darvoza o'rnatildi.

Muammolar ham yo'q emas. Masalan, dasturda belgilangan ayrim ishlar hamon nihoyasiga yetkazilmagan. E'tirozimizga mutasaddilar respublika va viloyat byudjetidan ajratilgan mablag'ning 1,5 milliard so'mi haligacha berilmaganini sabab qilib ko'rsatdi. Mablag' ajratilsa, to'xtab qolgan ishlar, albatta, oxiriga yetkazilishi ta'kidlandi. Xayrli ishni paysalga solib bo'lmas, deyishadi. Bahrinliklar bu ezgu harakat to'la-to'kis poyoniga yetishidan umidvor.

Umiddaxon XUDOYBERGANOVA, jurnalist



www.yuz.uz yuz.uznews

Irrigatsiya

TO'RTKO'L TUMANIDA 63 TA FERMER XO'JALIGINING 2061 GEKTAR MAYDONIDA TOMCHILATIB, 29 TA FERMER XO'JALIGINING 320 GEKTAR MAYDONIDA YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARI JORIY QILINDI.

CHO'LDA ham YUQORI HOSIL

getishtirish mumkin

Boshlanishi 1-betda

— O'rganish davomida suv tejoyvchi texnologiyalarni o'rnatayotgan tashkilotlar vakillariga ham tavsiyalar berilmoqda, — deydi O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi mas'ul xodimi Nurkomil Xudoyberdiyev. — Jumladan, dalalarni o'rganishlardan kelib chiqib, hovuzlar suv sig'imi va markaziy quvurlar o'lchami qanday bo'lishi kerakligi standartlar bo'yicha inobatga olinmoqda.

Taxtako'pir tumanidagi aholi tomorqalarini suv bilan ta'minlash maqsadida ko'cha bo'yidagi ariqlarga beton lotoklar o'rnatilmoqda. Avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish vaqtda yo'l

belgilangan. Hozir pudratchi tashkilot — "Naql maxsus quruvchi" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qurilish-montaj ishlari bajarilmoqda, — deydi "Qoraqalpog'i stoxsuvqurilishinvest" davlat muassasasi yetakchi mutaxassis Azat Qutlimuratov. — Qurilish ishlari yakuniga yetkazilgach, hududlardagi jami 3 mingdan ortiq xonadonning 451 gektar tomorqasi va tuman markazidagi 24,6 gektar ko'kalamzorlashtiriladigan yer suv bilan ta'minlanadi.

Suv muqobili yo'q resurs. Shu bois, hayot manbaiga qiyoslanadi. Yildan yilga suv taqchilligi



kengaytirilishi hisobiga aholi tomorqalariga suv yetkazib turgan ariqlar ko'milib ketgan edi. Mazkur muammoni bartaraf qilish yuzasidan ham vazifalar belgilandi. Unga ko'ra, "Dao'ir", "Aydin yol", "G'arezsizlik" mahalla fuqarolar yig'inlari hamda "Taxtako'pir" shahar fuqarolar yig'ini hududidagi aholi tomorqalarini suv bilan ta'minlash uchun 10 kilometr beton lotok hamda 16 ta elektronasos va 2 ta transformator o'rnatish ishlari belgilandi.

— Taxtako'pir tumani markazidagi Do'stlik guzari ko'chasining har tarafiga 5 kilometr dan jami 10 kilometr temir-beton lotok o'rnatish

oshib borayotgan mintaqamizda suvni tejash, bu borada tejamkor texnologiyalarni joriy qilish barcha suv iste'molchilarining asosiy vazifasiga aylanishi zarur. Bugun suv tejash uskunalarini ommaviy targ'ib qilish va yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash borasida juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda.

To'rtko'l tumanidagi Tozabog'yop mahallasi hududidagi "Qo'shnazar paxtakor" fermer xo'jaligi dalasida fermer xo'jaliklari rahbarlari, suv tejoyvchi texnologiyalar o'rnatuvchi tashkilotlar vakillari, shu yo'nalishda ilmiy izlanish qilayotgan olimlar ishtirokida ko'rgazmali amaliy seminar o'tkazildi.

Prezidentimizning 2023-yil 1-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar qilinmoqda.

Jumladan, birgina To'rtko'l tumanida 63 ta fermer xo'jaligining 2061 gektar maydonida tomchilatib, 29 ta fermer xo'jaligining 320 gektar maydonida yomg'irlatib sug'orish texnologiyalari joriy qilindi.

— Shu yil 18-aprel kuni Xitoy texnologiyasi asosida plynkna ostiga paxta ekildi. Paxta dalalariga bir marta bo'lsa ham texnika kirmadi. Qo'l mehnatidan ham foydalanilmadi, — deydi "Qo'shnazar paxtakor" fermer xo'jaligi rahbari Maxsud Ismailov. — Oldin 1 tonna o'g'it sepiladigan yerga 400 kilo o'g'it berildi. Buning afzalliklari juda ko'p ekan. Xarajatomiz 50 foiz qisqardi. Ilgari gektariga 60-65 kilo chigit ekkan bo'lsak, bu texnologiya asosida 1 gektar joyga 15 kilo urug' qadaldi.

Qishloq xo'jaligida suvni tejash bo'yicha belgilangan vazifalar bajarilishini ta'minlash maqsadida To'rtko'l tumanida 429 gektar yerga yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi qo'llanildi.

Mamlakatimizda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Hosildorlikning yildan yilga ortayotgani esa islohotlarning amaldagi samarasi, devious mumkin.

Minajatin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

CHEGARADAN KIRAYOTGAN SARMOYA CHEGARA BILMAYDI



Ma'lumotlarga ko'ra, Surxondaryo viloyatida 2024-yilning o'tgan davrida 358 million 400 ming dollarga teng investitsiya o'zlashtirildi. Yil yakuniga qadar viloyatga 788 million dollar miqdorida xorijiy sarmoya kiritilishi rejalashtirilgan. Bundan atigi bir necha yil muqaddam mamlakatning eng janubidagi qo'shni davlatlarga chegaradosh, biroq chegaralari yopiq bo'lgan vohaga investitsiya kirishini tasavvur qilib bo'lmasdi.

Viloyatning eksport salohiyati ham yildan yilga ortib bormoqda. Joriy yilning o'tgan davrida 5 ta xorijiy davlatga 360 million dollarga teng mahsulot eksport qilindi.

Termez xalqaro savdo markazining umumiy maydoni 260 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Mazkur hudud O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytirmoqda. Bu majmua 3 mingdan ortiq savdo nuqtasidan iborat 4 ta savdo kompleksi, har biri 300 o'rinni mehmonxonalar va xostel, quvvati 500 ming tonna teng bo'lgan xalqaro logistika markazi, 300 kishilik restoran, tibbiy diagnostika va sog'lomlashtirish markazi, ishlab chiqarish va omborxonalar binolari mavjud.

Kelgusida yillik xizmat ko'rsatish hajmi 10 million dollarni tashkil etadigan majmuaning imkoniyatlarini anchagina keng. U to'liq ishga tushirilgandan so'ng 5 mingdan ziyod yangi ish o'rini yaratiladi. Yillik savdo aylanmasi 500 million dollarga yetkazilishi belgilangan. Kelgusida bu yerdan yiliga 120 million dollarga teng mahsulot eksportga chiqariladi.

O'zbekiston, Tojikiston va Afg'oniston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni birlashtiruvchi nuqtalardan biri Termez tumanidagi "Termez kargo sentr" logistika markazi sanaladi. Mazkur obyektning umumiy qiymati 16 milliard so'm bo'lib, hududi 48 gektardan iborat.

Yuk tashish markazi ikki mamlakat o'rtasida eksport-import va tranzit yuklar oqimini

Islohotlar samarasi



kengaytirishga, tovarlarni Yevropa va Osiyo bozorlariga chiqarish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Keyingi yillarda markaz hududida erkin savdo zonasini ham tashkil etish borasida ko'rsatmalar berilgandi. Bu zonaga muayyan yo'nalishlar bo'yicha vizasiz kirish, eksport-import va tranzit yuklar uchun bo'jxona, karantin va boshqa xizmatlarni "yagona darcha" tamoyili asosida amalga oshirish mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda afg'onistonlik tadbirkorlar sarmoyasi ishtirokida jami olti yuzga yaqin korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 121 tasi qo'shma korxonalar va 451 tasi xorijiy korxonadir. Afg'onistonning eng nufuzli korxonalar Surxondaryo viloyatida bo'lib, 200 dan ortiqni tashkil qiladi.

— Surxondaryoda Termez xalqaro savdo markazi ochilishidan maqsad O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida tovar-xizmatlarning erkin almashinuvini ta'minlash, buning uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat, — deydi Oltinsoy tumani hokimi o'rinbosari Aziz Rahimov. — Garchi tumanimiz qo'shni davlatlarga chegaradosh bo'lmas-da, ularning sarmoyadorlari ishtirokida g'ij korxonalar safi oshib bormoqda.

Birgina Oltinsoy tumanida 2023-yilda tasdiqlangan investitsiya dasturlari doirasida xorijliklar bilan hamkorlikda umumiy qiymati 28 million 500 ming dollarlilik jami 62 loyiha ishga tushirildi. Natijada 449 ta doimiy ish o'rini yaratildi.

Joriy yil davomida hududiy investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 790 milliard 900 million so'm bo'lgan 21 loyihani amalga oshirish hisobiga 456 ta ish o'rini yaratish ham belgilangan. Ushbu mablag'ning 423 milliard 500 million so'mi tadbirkorlarning o'z mablag'i va 17 milliard so'mi bank krediti hamda 5 million dollari xorijiy kredit, shuningdek, 22 million 500 ming dollari esa teng to'g'ri xorijiy investitsiyadir. Yanvar-iyun oyi holatiga dastur doirasida umumiy qiymati 23 milliard 800 million so'mlik 12 loyiha ishga tushirildi.

Bugungi kunda Oltinsoyda parrandachilikning bedanachilik va tuyaqushchilik tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda. Jumladan, Bibizaynab mahallasida loyiha qiymati 15 milliard so'm, shundan 12 milliard so'mi tijorat banki krediti va 3 milliard so'mi tadbirkorning o'z mablag'i bo'lgan yangi parrandachilik korxonasi faoliyat boshladi.

Quvvati 30 ming bosh tovuqqa mo'ljallangan korxonaga to'liq quvvatda ishlay boshlansa, 350 ming dollarga teng yillik mahsulot olinadi.

Joriy yilda tumanda yana qator investitsiyaviy istiqbolli qishloq xo'jaligi loyihalarini tatbiq etish belgilangan. Bu ham mamlakatda tadbirkorlik qilaman degan kishilar uchun yaratilgan sharoitlarning yorqin ifodasi.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"O'zbekiston - 2030" strategiyasi

TENG VA IJOBIY MUNOSABAT

ALOHIDA E'TIBORGA MUHTOJ INSONLARGA YARATILAYOTGAN QULAYLIK KO'LAMI KENGAYISHIGA XIZMAT QILADI

"Inson qadri uchun" g'oyasi jamiyatning har bir fuqarosiga daxldor, nogironligi bo'lgan shaxslar ham bundan mustasno emas. Shunday ekan, ularga qulay sharoit yaratish, ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'ladi.



Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Dasturda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim shakllantirish, ular uchun qulay va maqbul muhit yaratish borasida qator vazifalar belgilandi. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarga munosib ish o'rinlari yaratish orqali bandligini ta'minlash, nodavlat notijorat tashkilotlarni jalb qilish uchun buyurtma loyihalarni amalga oshirish ayni yo'nalishdagi ishlar sirasidandir.

16-iyuldagi qaror bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi o'zgaradi. Xususan, nogironlikni belgilash tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari aniqlashdir. Bular nogironlikni erta aniqlash va oldini olishda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami mutaxassislari mas'uliyatini kuchaytirish, nogironlikni belgilash jarayonlari shaffofligini oshirish orqali sobadagi byurokratik to'siqlar va korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, shaxslarning kundalik hayotdagi faolligi va ishtirokini baholash natijalarini inobatga olgan holda nogironlikni belgilash tizimini joriy etish, nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifatini yaxshilash hamda ijtimoiylashtirish uchun ularning ehtiyojlarini to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash kabi vazifalardir.

Ayni shu maqsadda joriy yil 1-sentabrdan boshlab Toshkent shahri hamda Navoiy viloyati tuman va shaharlarida bosqichma-bosqich eksperiment tarqasida, 2025-yil 1-sentabrga qadar esa respublikaning qolgan hududlarida nogironlikni belgilashning yangi tartibi joriy etiladi. Bunda fuqarolarga nogironlikni belgilash bo'yicha Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari yoki ijtimoiy xodimlar orqali oilaviy shifokorlarga murojaat qilish imkoniyati yaratiladi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi ko'rigi uchun fuqarolarning tibbiy hujjatlarini yo'llash oilaviy shifokorlar tomonidan elektron tarzda amalga oshiriladi. Vrachlik-maslahat komissiyalari oilaviy shifokorlar



O'ZBEKISTON 2030

tomonidan tibbiy hujjatlar o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirilgan holda yuborilishiga uslubiy ko'maklanmaydi.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar xodimlari tomonidan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti nogironlikni baholash shkalasining mahalliy xususiyatlar va shart-sharoitlarga moslashtirilgan mezonlari asosida 18 yosh va undan katta shaxslarning funksionalligini baholash tartibi joriy etiladi. Baholash natijalari 2025-yil 1-sentabrga qadar nogironlikni belgilash uchun asos hisoblanmaydi.

Endilikda insonlarning kundalik hayotdagi ishtiroki va faoliyat natijalariga qarab, nogironlikni belgilash tartibi amalga oshiriladi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bosh mutaxassisi Nodira Solihova. — Bunda xizmat xodimlari tomonidan shaxsning funksionalligi, bir paytning o'zida tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasida sog'lig'i holati baholanadi. Eng muhim jihati, bu baholash natijalari va nogironlik guruhi elektron tarzda belgilanadi.

Shuningdek, 2024-yil 1-oktabrdan boshlab ixtisoslashtirilgan Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan nogironlikni belgilash tartibi bekor qilinib, nogironlik tumanlararo va tuman (shahar) Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan belgilanadi. Keyingi



yil 1-apreldan boshlab esa fuqarolarni TIEK ko'rigiga yo'llash uchun lozim bo'lgan amaldagi davolanish muddatlari bo'yicha talab bekor qilinadi hamda har bir kasallikning kechishi va turidan kelib chiqib alohida belgilanadi.

Qarorda Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan kasbga, sportga va ta'limga tavsiya berish tartibi bekor qilinadi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi mutaxassisi Abbosbek Xolliqulov. — Shu bilan birga, TIEKning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi muddatini uzaytirish hamda maxsus jihozlangan transport vositasini boshqarish layoqatini belgilashga oid funksiyalari davlat tibbiyot muassasalariga o'tkazish orqali tugatiladi.

18 yoshdan katta shaxslarga nogironlikni belgilashda shaxsning klinik-funksional buzilishlari tavsifidan kelib chiqib, nogironlikning muddati, sababi, tibbiy reabilitatsiya tadbirlari, shuningdek, protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalariga muhtojligiga oid

ma'lumotlar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida shakllantiriladi.

Fuqarolarga birinchi marotaba nogironlik belgilangandan so'ng "Inson" markazlari tomonidan ularni ta'lim va kasbga yo'naltirish, bandligini ta'minlash, sportga jalb etish hamda psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha individual tartibdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatish rejalari ishlab chiqiladi va ijrosi monitoring qilib boriladi.

Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparatida nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi jarayonini muvofiqlashtirish bo'yicha vazir maslahatchisi lavozimi joriy etiladi.

Sohaga qaratilayotgan e'tibordan juda xursandmiz. Qabul qilinayotgan hujjatlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun katta imtiyoz berish orqali shu jamiyatning to'laonli a'zosi sifatida yashash imkoniyatini yaratayapti, — deydi O'zbekiston nogironlar uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari Farhod Abdurahmonov. — O'zbekiston 2021-yilda Nogironligi bo'lgan



shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilgan. Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga o'lgan korxonaga va tashkilotlar uchun qator imtiyozlar berilgan. Lekin ko'p muassasalar, ko'chalar va bekatlar imkoniyati cheklangan shaxslar harakatlanishiga moslashmagani uchun qiyinchiliklarga duch kelayotgan edik.

Davlatimiz rahbarining "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, endi nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bo'yicha milliy tizim yaratiladi.

Shu bilan birga, nogironligi bo'lgan shaxslarga ishlash va kasb-hunarga o'qishda to'siqsiz muhit yaratish uchun ularning "mehnatga layoqatini belgilash" amaliyotidan voz kechiladi. Bunda nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanishi juda muhim.

Mazkur hujjat bilan 2024-yil 1-oktabrdan boshlab davlat byudjeti hisobidan qoplanadigan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlar mablag'lari hisobidan quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va ta'mirlanadigan shaharsozlik faoliyati obyektlari shaharsozlik hujjatlari loyihalarining texnik qismi nogironligi bo'lgan shaxslarga sharoitlar yaratish bo'yicha shaharsozlik norma va qoidalarda belgilangan talablarga muvofiq yuzasidan majburiy ekspertizadan o'tkaziladi. Bu bilan barcha

turdagi obyektlarda to'siqsiz, xavfsiz muhit yaratilishiga erishiladi.

Ekspertizadan o'tishi talab etilmaydigan boshqa kichik turdagi obyektlar, masalan, turli yo'nalishdagi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, dorixonalarga litsenziya berish jarayonida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiya xulosasi olish tartibi joriy etiladi.

Shuningdek, metro va avtobus bekatlari, chorrahalarni nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlariga moslashtirish uchun tegishli mablag' ajratish bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning kelgusi yillarga mo'ljallangan dasturlariga kiritib boriladi.

Ba'zida bajarilishi lozim bo'lgan ayrim tadbirlar mablag' ajratilmagani yoki cheklatirilgan hisobiga amalga oshirilmagani holatlar uchra turadi. Shu bois, qarorda har bir vazifaning muddati, unga yo'naltiriladigan mablag' manbalari aniq ko'rsatilgan. Xususan, har yili "Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda" respublika jamg'armasi mablag'ining kamida 10 foizi chorrahalarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun xavfsiz va to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlariga yo'naltiriladi.

Qarordagi yana bir ahamiyatli jihat, 2026-yil 1-yanvargacha qadar nogironligi bo'lgan shaxslarning harakatlanishi uchun respublikaning barcha hududlarini qamrab oluvchi, to'siqsiz muhit yaratilgan obyektlarni aniqlash imkonini beruvchi "Interaktiv xarita" axborot tizimi ishga tushiriladi. Bunday obyektlar nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz harakatlanishi mumkinligini anglatuvchi maxsus belgilar bilan jihozlanadi va mobil ilovalarga ulanish imkoniyati yaratiladi.

Joriy yil 1-oktabrdan boshlab avtobuslarda xizmat ko'rsatish bo'yicha o'tkaziladigan tenderlarda faqatgina nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqsiz muhitni ta'minlovchi uskunalar bilan jihozlangan avtobuslar ishtirok etishi belgilandi.

Transport vositalari belgilangan talablar asosida jihozlanishida ham davlat ko'magi beriladi. Jumladan, har bir transport vositasini moslashtirish xarajatlarining 50 foizi, ya'ni 10 million so'mgacha bo'lgan qismi Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Hujjatning ushbu bandi ko'pchilikni xursand qilishi aniq. Endi shahar yo'lovchi transportida I guruh nogironligi bo'lgan shaxs va ularga hamrohlik qiluvchi bir shaxsga bepul xizmat ko'rsatiladi.

"Inson qadri uchun" g'oyasi jamiyatning har bir fuqarosiga daxldor, nogironligi bo'lgan shaxslar ham bundan mustasno emas. Shunday ekan, ularga qulay sharoit yaratish, ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'ladi.

Mazkur qarorlar esa yangi O'zbekistonning islohotlar markazida inson turganini anglatadi. Jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan teng va ijobiy munosabatlarni shakllantirish, alohida e'tiborga muhtoj insonlarga yaratilayotgan qulayliklar yanada oshishiga xizmat qiladi.

Qadriyat

NONNI ISROF QILGANNING NOLISHIGA O'RIN YO'Q



Rivoyat bo'lsa-da, tandirda non yopganning gunohi kechirilishiga ishongimiz keladi. Qishda-ku, mayli, lekin tandir taftidan kam bo'lmagan yoz jazirasida laxcha cho'g' ustiga bosh suqishning o'zi bo'ladimi? Eng sabrli, matonatli odamlariga shunday qila oladi. Bu haqda o'ylaganimizda, bolalariga kulcha yopib beraman deb yuzi cho'g'dek qizargan, u yer-bu yeriga qorakuya tekkan jonsarak onalarga qanchalar qiyin ekanini tushunib yetamiz. Dasturxonimizga issiq, lo'ppi nonlarni yetkazib berayotgan novvoylar ham xuddi shunday mashaqqat ichra pul topadi. Yoniga qolgani — cho'qqa tushgan, bir oz kuyib qolgan ikkita non ona sutiday halol ularga.

turaylik, (unday ochlikka chidash berolmaymiz) endigina mustaqillikka erishgan yillarimiz birdan non tanqis bo'lib qolgan kezlar ba'zan och holda uxlab qolganimiz esimga tushdi. To'rt bola to'rt tarafga tarqab, do'konlarda navbatda turardik. Bir donadan olib kelsak, 4 buxanka non kelardi uyga. Bir kuni men navbatda turgan do'konga non kam kelib, ko'pchilikka yetmay qoldi. Birga navbat kutib turgan o'zim tengi qiz bilan non qidirib notanish tomonlarga ketaveribmiz. Bola ekanmiz, shom yaqinlashib qolgani, ortimizga qanday qaytishni ham o'ylamabmiz. Hech bitta do'konda non ko'rinmaydi. 5-6 kilometr yuridik chamasi, oyoq kiyimim uzilib ketdi. Nima qilishni bilmay, yo'l bo'yidagi bir xonadondan igna-yp so'rab amallaganimizcha qosh qoraydi. Qorong'ilik bilan birga ko'ngilga vahima ham tusha boshladi. Sherigimning uyi biznikidan ham uzoqda ekan. Non ham bir nav, endi uyga yetib olish muhimroq edi bizga. Kelgan yo'limizdan ortga yura boshladik. Akalarim va singlim uyga qaytgan, ammo menga nima bo'lganini bilolmagan dadam to'g'ri biz ketgantomon yo'liga



tushgan ekan. Xayriyatki, yo'ning yarmida dadam bilan uchrashdik. Go'yo ertaklardagi bahodirmi ko'rgandek, "Nega o'zboshimchalik qilding?" deb koyisa ham dadamga yopishdim. O'trog'im esa "Meni ham uyimga olib borib qo'yasizlar-a?" dedi mo'tirab. "Qo'rqma, olib borib qo'yamiz, sizlarni qaranglar, yana bir marta shunday qilsanglar, mendan qattiq xafa bo'lasizlar", dedi dadam. Shu paytgacha yurib ham non topa olmaganimdan xijolat bo'lib, "Akalarim va singlim non olib keldimi?" dedim. "Ha, olib keldi, non bor, bolam", degan gapdan

behad suyunib ketdim, yo'qsa, bugun ham och qolamizmi deb o'ylagan edim. Ha, non nechog'liq aziz ekanini haqida bugun juda ko'p gapirilyapti. To'g'ri, oramizda urush yillarini ko'rganlar kamayib borayotgandir, lekin ularning boshdan o'tkazganlarini eshitganlar bor-ku. Unutuvchi ekanimiz deb, non oltindan qimmat bo'lgan kunlarimizni ham unutib yuboramizmi? Nonning ushug'i ham non ekanini bot-bot aytaverish kerak. Yoshlarga bu kabi gaplar yoqmasligi aniq. Non qadriini yaxshi biladigan katta avlod vakillarining o'zi

amalda qadrlab, yoshlarga ibrat bo'lishi lozim. Aksariyat qariyalar bor xonadonlarda sal suvi qochgan nonlar to'g'ralib, oftobda quritilib, xaltalarga solib qo'yilganini ko'ramiz. Non bo'lmagan payt xonadon egalari har yoqqa yugurmaydi. Nonpalo (ba'zi joylarda nonbosdi) qilinsa bormi, ham ovqat, ham non bo'ladi. Nonushaga esa kosalarga qotirilgan nondan solib, sariyog', tuz qo'shib ustidan qaynagan suv quyiladi. Yaxshilab aralashtirib yeb ko'ring, sariyog'li sho'rva ichgandek bo'lasiz. To'q tutishini aytaysizmi? Tandir nonning chorasi bor, bo'lsa nonni nima qilish mumkin dersiz. Bo'lsa nonni ham mayda qilib to'g'rab, ustiga ozroq namakob suv sepib, gaz pechida qizartirib o'lsangiz, bolalarga emak bo'ladi-qoladi. Qolaversa, bo'laklarga bo'lib, tuxumga botirib, yog'da qovurib o'lsangiz, tuxumli non bo'ladi. U ham qorinni to'q tutadi.

Oilasi bilan Moskvada yashaydigan bir tanishimiz har gal kelganida 3-4 xalta qotirilgan non olib ketar, bolalari maza qilib yer ekan. Aslida, hammamiz bolalarimizni shunga o'rgatsak bo'ladi. Qattiq nonning foydali jihatlarni yaxshi bilamiz. Do'ppi to'q kelganda, do'konga yugurish o'miga o'zimiz loqaq bir xalta qattiq nonni chetga olib qo'ysak, biroq bergandek xursand bo'lib ketamiz. Xullas, nonning qadriini o'zimiz o'rgatmasak, to'qlikda non kechirayotgan farzandlarimiz qayerdan bilsin?

Kerak bo'lsa, non qadri bilan bog'liq filmlarni ular bilan birga ko'rishimiz joiz. Urush haqidagi "Sen yetim emassan" kabi filmlar o'zimizni ham

qayta tarbiyalashga xizmat qiladi. Endigina esini taniyotgan bolalarimizga esa bug'doy terishdan tortib, non pishguncha o'zi mehnat qilgan ona tovuq va tayyor nonni ko'rganda yugurib kelgan jo'jalari haqidagi ertaklarni aytib bersak, nonni qadrlashga o'rgatuvchi multfilmlar ko'rsatsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Darvoqe, "Nonni bosgan qiz" multfilmni ko'rgan bo'lsangiz kerak. Milliy emas, lekin tarbiyaviy ahamiyati umummiki bo'lgan bu multfilm ayni kunda nafaqat bolalarning, balki nondek aziz ne'matni chiqindixonaga tashlayotgan ayrim kattalarning ham vijdonini uyg'otishga xizmat qiladi. Zero, non aziz ne'matligi, uni uvul qilishning har qanday ko'rinishi vijdonisizlik ekanini farzandlarimizga bolaligidan o'rgatib bersak, isrofchilikni kamaytirishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

Har gal shu multfilmni ko'rganda bexosdan ko'zga yosh keladi. Zero, yaqin o'tmishda ham bug'doy o'rigan dalaga borganlar, shamol egib yuborganidan kombaynga ilashmay qolgan boshqolarni ko'zga surtib, avaylab terib olganlar buning mashaqqatini yaxshi biladi. Bir tandir nonga yetgulik un nechta boshuq evaziga kelishini aytib bera oladi. Shuning uchun ham ular har kuni poytaxtning o'zidagi chiqindixonalardan ajratib olinayotgan 2 tonnaga yaqin nonning uvoldan juda-juda qo'rqudi.

Boqiy meros



VODIYDA

BAXSHICHILIK BO'LGAN(MI?)



Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Folklor xalqlarning nomoddiy boyligi hisoblanadi. Bunga hech shubha yo'q. Chunki xalq og'zaki ijodi uzoq o'tmish, turmush tarzi, hayot falsafasi haqida so'zlaydi. XXI asrga kelib, folklor moddiy boylikka ham aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. U orqali mamlakatlar turizm salohiyatini oshirishi, sayyohlarni o'ziga jalb etishi mumkin. Buni "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali kabi tadbirlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Joriy yilda ham "Boysun bahori" butun dunyo folklor-etnografik san'ati ijrochilari, folklorshunolar va soha mutaxassislarini yurtimizga chorladi. Yil sayin chet davlatlar folklor jamoalari orasida unda qatnashish istagi ortib bormoqda. Masalan, bu yil Buyuk Britaniya, Belgiya, Isroil, Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Ruminiya, Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston kabi davlatlarning mashhur folklor jamoalari festivalda ishtirok etdi. Festivalning nufuzini yanada oshirish uchun esa milliy folklor-etnografik xalq jamoalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur. Bu borada qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Jumladan, 2020-yil 30-oktabrda Prezidentimizning "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unda respublikamiz hududlarida ekspeditsiya tashkil qilgan holda milliy sport turlari barobarida xalq o'yinlari tarixini ham o'rganish aytilgan. Xalq o'yinlari, qo'shiqlari ko'nglimizni allanechuk yoqimli hislarga to'ldiradi. Millat ruhini his etib, milliy g'urur tuyamiz. Sababi, ular xalqimizning uzoq o'tmishiga genetikamizdagi kodlar bilan bog'langan. Shu ma'noda, bu o'yin va qo'shiqlar faqat milliylik targ'iboti emas, balki o'zligimizni unutmaslikka bo'lgan da'vat hamdir. Folklor jamoalari repertuarlarini xalq qo'shiqlari, shuningdek, milliy o'yinlarimiz bilan ham boyitmoqda.

Madaniyat vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, yurtimizda 500 dan ziyod folklor-etnografik jamoa mavjud. Ular nomoddiy merosimizni keng targ'ib etishi uchun muayyan me'yorlar belgilab qo'yilgan. Xususan, jamoalar har uch yilda ijodiy attestatsiyadan o'tadi. Talabga ko'ra, ularning milliy qadriyatlarini ko'rsatib beruvchi o'ndan ortiq repertuari, bir yarim soatlik dasturi bo'lishi kerak. Yangi dastur avvalgi uch yillikdagi repertuardan tubdan farq qilishi lozim. Mazkur talab folklor-etnografik jamoalarni muttasil izlanishda bo'lishga undaydi. Bu esa nomoddiy merosimizning ochilgan yangi qirralarini topishda, uni ommalashtirishda qo'l kelmoqda. Ahamiyatli, bunday ommalashtirish faqat sahna bilan bog'lanib qolgan yo'q. Har bir folklor-etnografik jamoa repertuari to'plam shakliga keltirilmoqda. Ular hududlardagi madaniyat markazlariga yetkazib berilyapti.

Natijada jamoalar turli repertuarlar bilan tanishib, tajriba almashishga, bir-birining repertuaridan foydalanishga xizmat qilyapti. Ko'plab folklor-etnografik jamoalar aynan shu amaliyot sabab repertuarini boyitib bormoqda. Ana shunday ansambllardan biri "Bedana" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasidir. U 1995-yilda tashkil topgan bo'lib, Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani madaniyat bo'limi huzurida faoliyat yuritmoqda. Uzoq yillik izlanishlar jamoa yaxshi natijalarga erishishiga olib keldi. Masalan, 2022-yilda "Vodiy folk" respublika festivalida "Eng yaxshi xalq o'yinlari namoyishi" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Ansambli unutilib borayotgan xalq qo'shiqlari va temalarni, folklor ashularini, milliy o'yinlarimizni, askiya, payrovlarni, alla, lapar va yallalarni qayta tiklab, boyitgan holda ijro etib kelmoqda. Jumladan, marosim qo'shiqlari hisoblanish "Ko'rp'a hashari", "Angishvona", "Andijon palovi", "Kulola" kabilar, xalq qo'shiqlaridan "Kovushim", "Yelkaga chiq", "Bedana", xalq o'yinlaridan "Quloq tortish", "Arqon tortish", "To'ptosh", "Yog'och oyoq"lar urf-odat va qadriyatlarimizga juda yaqin ekani bilan qimmatli. Jamoaning "Milliy qadriyatlar"



Qadim xalq ijodi namunalari ahamiyati haqida ortiqcha izohga hojat yo'q. UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kirishi mumkin bo'lgan nomoddiy madaniy boylıklarımız juda ko'p. Faqat ularning borini qadrlashga, yo'qolib ketayotganini qayta tiklashga kamarbasta bo'lishimiz kerak.

ko'rsatuvchi uchun yozib olingan "Ko'rp'a hashari" va boshqa konsert dasturlari markaziy telekanallarda takror va takror namoyish etilgan. Ayni paytda ular televideniye oltin fondida saqlanyapti. 2017-yildan buyon "Bedana" folklor-etnografik jamoasi xalqaro festivallari va turizm ko'rgazmalarida haqiqiy o'zbek milliy san'ati namunalari namoyish etib kelyapti. Milliy qadriyatlarini tiklashdagi faol xizmatlari hamda yuksak ijrochilik mahorati uchun jamoaga 2020-yilda "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoni berildi.

Inson o'zi xohlab qilgan faoliyatda, albatta, unum bo'ladi, — deydi ansambli ishtirokchisi, "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni sohibasi Matlubaxon Samatova. — Rahbarimiz Baxtiyor aka Jumashvov boshchiligida ahil-inoq



ishlab kelyapmiz. Xalq qo'shiqlari tarixi uzoq o'tmishga borib taqalishini ilm kishilari yaxshi biladi. Ana shu asriy merosni kelgusi avlodga yetkazib beradigan zanjir halqasining biri ekanimiz bizga faxr bilan birga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi.

Matluba opa aytganidek, jamoaning ijodiy ishlari respublika miqyosida ham yuqori baholanmoqda. Ularning dasturlari olimlar tomonidan ilmiy o'rganilmoqda. Masalan, Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiya ishchi guruhi a'zolari "Bedana" jamoasi bilan uchrashdi. Jamoa mehmonlarga "Angishvona", "Kelida sholi tuyish", "Ona allasi" kabi dasturlarini namoyish etdi. Ekspeditsiya a'zolari dasturlarni chuqur o'rgandi. Videotasmaga muhrlab oldi.

Katta ilmiy xodimlar Hikmatillo Gadoyev hamda Umid Tursunov xizmat safaridan endigina kelganiga qaramay, bizga taassurotlarini bajonidil so'zlab berdi. — UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga

kirinish mumkin bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari aniqlash va hujjatlashtirish maqsadida institutimiz tomonidan ekspeditsiya tashkil etilyapti, — dedi tadqiqotchilardan biri Hikmatillo Gadoyev. — Andijon viloyatining bir qancha tumanlaridagi ekspeditsiya davomida dorbozlik, katta ashula, maqom ijrochiligi, askiya, alla, lapar, terma, yor-yor (folklor ijrochiligi) namunalari o'rgandik. Shuningdek, pichoqchilik, beshikchilik, do'ppido'zlik, tandirchilik, temirchilik sohalarida sulolaviylikni, ustoz-shogird an'analari davom ettirayotgan va boshqa nomoddiy madaniy meros namunalari saqlab kelayotganlar faoliyati bilan tanishdik. Kerakli ma'lumotlar, jarayonlarni tasvirlash uchun. E'tiborimizni torgan jihatlardan biri beshikchilik, sozgarlik, egarchilikda buyumlarning mix ishlatilmasdan bir-biriga kiydirilishi, pona usulida yasalihi bo'ldi. Bu usul ustadan katta mahorat talab qiladi. Qadimdan bolaning beshigiga qoqilgan mix uning hayot yo'liga ta'sir qilmasin, to'smasin, yana biror joyini tilmasin, deya yaxshi niyat bilan mixsiz yasalgan ekan. Chavandozning yo'li bexatar bo'lsin, oti qoqilmasin, dushmanga tutilmasin, beli bukilmasin, degan niyatda egarga mix urmay tayyorlanishini bilib oldik. Sozandaning qo'lidagi soz ohangi ko'ngillarni xushnud etsin, xasta dillarga malham bo'lsin, xonandaning ovozi qo'ldosh bo'lsin, deya mix urilmas ekan. Shahrixon pichoqchiligi, Buloqbo'shining temirchiligidan tashqari folklor cholg'ulari, to'ya, bevaqt olamdan o'tgan yosh yigit va qiz qolug'iga aytiladigan yor-yorlar, cho'ponlar hayotidagi urf-odatlar to'g'risida qiziq-qiziq ma'lumotlar to'plashga erishdik. Bular xalqimizning qadriyatlarini, tutumlari haqida ma'lumot beradi. Bizni o'yantirib keladigan yana bir savol — Farg'ona vodiysida ham baxshichilik bo'lganmi? Bu borada hozircha aniq fakt yo'q. Lekin yoshi ulug' bir necha inson vodiya ham baxshichilik bo'lganini aytdi. Kelgusi tadqiqotlarimizda buni ham aniqlashirishga harakat qilamiz. Agar bu taxmin ilmiy tasdiqini topsa, mamlakatimiz madaniy hayotida katta yangilik bo'ladi.

Ekspeditsiya a'zolari "Bedana" jamoasi ijrosidagi lapar, marosim udumlari haqida ham ma'lumotlarni yozib oldi. Shuningdek, ular viloyatining boshqa tumanlarida ham bo'lib, katta ashula, lapar, karnaychilar haqidagi ma'lumotlarni yig'ishga erishdi.

— Ilmiy tadqiqotchilarga juda qiyin ekan. Kun qoq tikkaga kelgan paytda ham tinim bilmasi, — dedi Andijon viloyati madaniyat bo'limi xodimi Manzura Mo'ydinova. — Ular bilan cho'ponlikka doir xalq qo'shiqlarini tasvirlash o'ldik. Tadqiqotchilarning qaysi hududimizda qanday xalq qo'shiqlari kuyulib kelinganini bizdan-da yaxshi bilib, kelib chiqish tarixini chuqur o'rganayotganiga havas qilib, viloyatimizda shuncha nomoddiy madaniy boyligimiz bor ekan-a, deb g'ururlandik. Tadqiqotchilardan boshqa viloyatlarga tashkil etiladigan ekspeditsiyalarga bizni ham olib ketishini so'radik. Chunki milliy qo'shiqlar, xalq o'yinlari har bir hududda bor. Boshqa joylarda qanday ijro etilishi qiziq, albatta.

Ha, qadriyatlarimiz bilan bog'liq marosimlarimiz hududlarda turlicha o'tkaziladi. Xalq qo'shiqlarining kelib chiqish tarixi ham hududlar turmush tarziga aloqador. Hatto milliy taomimiz — palovxon to'raga solinadigan guruch yetishtirish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar ham mavsumdan oldin o'tkazib kelingan. "Bedana" xalq havaskorlik jamoasi bu jarayonni "Sholi sepdim" deb nomlangan chiqishida quyidagicha ifodalaydi:


Dala ko'rinishi. Ikki kishi ikki tomonda suvni loyqalaydi, yerni tekislab, bo'laklarga bo'lib, chegaralarini loy bilan bir-biridan ajratib, to'rtburchak maydonlar hosil qiladi. Bir kishi beliga etak taqib, sholi sepihga chiqadi. Atrofda erkak-ayol mehnatkashlar doira yasaydi. Oshqoq chiqib duo qiladi. So'ng "Kelinglar, sholimizni xursandlik, kuy-qo'shiqlar bilan sepihini boshlaylik", deydi. Doira hosil qilganlar esa qo'shiq kuyilaydi:

Sholi sepdim dalaga hosillar mo'li bo'lsin deb, Qo'lni oching duoga xirmon donga to'lsin deb. Urug' chala bo'lmasin, hosil ola bo'lmasin, Xirmonni ko'targanga anduh-nola bo'lmasin. Hamma baxtiyor bo'lsin bu serquyosh o'lkamda, Bir kelib mehmon bo'ling kuzda hosil bayramda.

Qadim xalq ijodi namunalari ahamiyati haqida ortiqcha izohga hojat yo'q. UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kirishi mumkin bo'lgan nomoddiy madaniy boylıklarımız juda ko'p. Faqat ularning borini qadrlashga, yo'qolib ketayotganini qayta tiklashga kamarbasta bo'lishimiz kerak.

Bugunning gapi

IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI YANA BIR XAVF



"Yangi O'zbekiston" gazetasi 2024-yil 20-iyul kuni sonida jurnalist Rustam Boyto'ra roning "Ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy manzarasi" sarlavhali felyetoni chop etilgan edi. Hammaga tushunarli tilda yozilgan bu maqola bir o'qishda o'qiladi-yu, unda aytilgan masalalar kishini kunlar davomida o'yga toldirib yuraveradi — befarq tomirlaringizni uyg'otganday bo'ladi.

Jurnalist badiiy vositalar hamda o'ziga xos uslub bilan ijtimoiy tarmoqlar hamda so'z erkinligining e'tibor berish lozim bo'lgan jihatlarga ko'zga tutadiki, u sizni bizning aksimizni ko'rsatadi. Darhaqiqat, ijtimoiy tarmoqlar ommalashishi barchaga "gapirish" huquqini berdi, endi har qanday inson ularda nimanidir o'rgatishi, shaxsiy fikrlarini ifodalashi, bahsga kirishishi mumkin. Bu, albatta, yaxshi. Lekin hammaning ham niyati to'g'ri, yo'rig'i tekis deb o'ylaysizmi? Kimdir aggressiv fikrlari, kimdir madaniyatga,

tilga hamda tarixga hurmatsizligi bilan allaqachon qandaydir kuchlarga xizmat qilib yurganini bilishning o'zi tasavvurda qo'rquv uyg'otadi. Ijtimoiy tarmoqlarning real hayotdan farqi — unda nisbatan erkin harakat qilish mumkin. Ya'ni xohishga ko'ra o'z ism-sharifingiz bilan yoki anonim tarzda ro'yxatdan o'tsa bo'ladi. Anonim anonimlikning anchagina salbiy jihatlari bor.

Anonim aslida nima uchun kerak? Ijtimoiy tarmoqlardan bunday usulda foydalanuvchilarning asosiy qismini real

hayotdagi dushmanlarni virtual olamda obro'sizlantirmoqchi bo'lganlar tashkil etadi. Aynan shu nuqtada qonunchilikdan to'la foydalana olmaslik ehtimoli ortadi. Internetdagi ma'lumotlarga ko'ra, har kuni dunyo bo'ylab yuz minglab odamlar anonim foydalanuvchilardan tomonidan haqoratomuz jumalarni qabul qiladi. Eng achinarlisi, ularning 90 foizdan ortiq qismi javobsiz qoladi. Bu esa inson huquqlarining qaysidir ma'noda toptalishidir. Ijtimoiy tarmoqlar egalari foydalanuvchilarning ishonchini yo'qotishdan cho'chib, akkauntlar haqidagi yopiq ma'lumotlarni rasmiy doiralarga taqdim etishdan muntazam bosh tortadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek segmentida ham anonim profilardan aziyat chekish yil sayin ortib borayotir. Biroq ularning shaxsini aniqlash imkoniy borlari jazoga tortiladi, qolganida jabrlanuvchi aniq, jabrlavchi noaniqlikqicha qolaveradi. Qizig'i, ana shunday anonim "blogger" hamma-muncha kuzatuvchilarga ham ega. Ayniqcha, taniqli insonlar haqida asossiz tarqatilgan tuhmatlarning ko'rislar soni

anchoq — bu yurtdoshlarimiz orasida faktcheking madaniyati hamon sustligicha qolayotganini ham anglatadi. Noto'g'ri axborot esa jamiyatdagi munosabatlarga putur yetkazishi allaqachon tadqiqotlarda isbotlab bo'lingan. Xo'sh, anonimlikdan himoyalanih uchun nima qilish kerak? Buning yagona chorasi shaxsi noma'lum bo'lgan foydalanuvchilarning har qanday fikriga tekshirilmagan ma'lumot sifatida qarashdir. Bu ularning "tuhmat quroli" kuchayib ketishining oldini oladi. Sababi, hozircha ular keltirib chiqaradigan munamolariga qarshi kurashadigan to'la qonuniy uslub mavjud emas.

Tarmoqlarning o'zbek segmentidagi taklif borasida hamjihat bo'lsagina, biz bir-birimizni tuhmat hamda haqoratlardan himoya qilishimiz mumkin. Aks holda, anonim xurujlar kamayish o'miga ko'payib boraveradi.

Jonibek ALIJONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. NASHR INDEKSI — 236. Buyurtma — 2600. 41026 nusxada bosildi. Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy